

## JADIDCHILIK HARAKATINING TUB MOHIYATI HAMDA JADIDLAR HAYOTIDAGI QORA SAHIFALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7831060>

Xudoyberdiyev Anvar Megli o'gli

[anvarxudoyberdiyev258@gmail.com](mailto:anvarxudoyberdiyev258@gmail.com)

O'zbekiston Milliy universiteti Tarix fakulteti

Tarix yo'nalishi 1-bosqich talabasi

### **Annotatsiya.**

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Rossiya mustamlakasi hisoblangan O'rto osiyo, Sibr, Kavkaz hududlarda boshlangan madaniy marifiy o'zgarishlari ziyoliy qatlam orasida Jadidchilik harakati nomi bilan keng yoyildi. Maqolamizda dastlab Jadidchilik harakatininig yuzaga kelish sabablari va g'oyaviy qarama-qarshiliklari, xalqni qoloqlikdan hamda diniy xurofotdan ozod etish, ma'naviy-marifiy isloxoxtlar orqali jamiyatni yuksaltirish va siyosiy birlikka chorlash kabi g'oyaviy qarashlari haqida atroflicha fikr yuritsak, maqolamizning ikkinchi qismida Jadidchilik harakatining yorqin namoyondalarining hayoti va ularning mustabid tuzimga qarshi olib borgan milliy ozodlik harakatlarini, shuningdek yakunda sodir bo'lga oktabrning mudhish voqealarini maqolamiz sahifalari ketma-ketligida yoritib beramiz.

### **Kalit so'zlar.**

Jadidchilik, Maorif, Yangi usul, Tarbiai Atvol, Mustabid, Jaholatga qarshi kurash, Panturkizm, Qora sahifalar, Asri orzu.

### **Abstract.**

The cultural and educational changes that began in the regions of Central Asia, Siberia, and the Caucasus, which were considered Russian colonies at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, spread widely among the intellectuals under the name of Jadidchilik movement. In our article, we will firstly think about the reasons, for the emergence of the Jadidism movement and its, its ideological opposition, its ideological views, such as liberating the people from backwardness and religious prejudice, improving society through spiritual and educational reforms, and calling for political unity. We will cover the life of its bright representatives and their national liberation movements against the established regime, as well the terrible events of October that happened in the end, in the sequence of pages of our article.

### **Key words.**

*Jadidism, Educatio, New method, Tarbiai Atvol, Mustabid system, Strugle against ignorance, Pan-Turkism, Blac pages, Century dream.*

Maqolamiz avvalida "Jadid" atamsi kelib chiqish tarixiga nazar tashlasak.Dastlab Turkiyada Sulton Salim III {1739-1802} hukmronligi davrida "Jadid" atamasi siyosiy tuzimga nisbatan qo'llanilgan. Abu Bakr Ratib bildirishnomalarida keltirishicha u yerda ko'rgan idora tizimini dastlab "Nizomi Jadid" deb nomlagan.Yevropaga bu terminning kirib kelishi 1789-yildagi buyuk Fransuz inqilobiga borib taqaladi.Ushbu jamiyatda qurilgan siyosiy tuzim "Fransiya nizomi Jadid" nomi bilan tarixiy manbalarda keltirilgan.XIX asr oxiri va XXasr boshlarida insoniyat sivilizatsiyasida tub burilish davri bo'ldi.Davlatlarning keyingi siyosiy taraqqiyoti yoki qaramlik davrini jahon urishlari belgilab berdi.Bu davrda bir jamiyat yoki xalqning butunlay yod jamiyat ta'sirida qolishi turmush hayotda balki insonlar falsafasida inqilobiy fikrlar shakillanishiga asos bo'ldi. Aynan shu davrda Markaziy Osiyoda boshqa mintaqalarida shakillangani singari o'zgacha fikrlovchi ziyoliylar qatlami shakillanishi yangi Jadidchilik deb nomlangan oqim vujudga kelishiga zamin yaratdi.**Jadidchilik** yoki **Jadidizm** ( arabcha jadid yangi ) Turkiston, Kavkaz, Qirim xalqlar hayotida muhim ahamiyat kasb etgan siyosiy-ijtimoiy tuzum desak mubolag'a bo'lmaydi. XIX asr oxirida mustamlaka zulmi tufayli iqtisodiy jihatdan inqiroz holatiga tushib qolgan, Turkistonni jaholat iskanjasidan olib chiqishga bel bog'lanan ziyoliylar birinchi navbatda Chor Rossianing siyosiy zulmiga qarshi kurashishni afzal bilishdi.Bu borada Jadidchilik harakati katta rol o'ynadi.Jadidchilik harakatining asosiy maqsad va tamoillari shunda ediki qoloq ijtimoiy tuzumni bartaraf etish mamlakat aholisi orasida ma'rifatni keng yoyish va madaniy islohatlar o'tkazish, shuningdek milliy mustaqillik g'oyalarni hayotga tadbiq etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yan edi. Turkistonda jadidchilik g'oyalari XIX asr 90-yillarda keng yoyildi .XX asr 30-yillarda o'lka ijtimoiy va siyosiy hayotida muhum rol o'ynadi .Jadidchilik umummiliy harakat sifatida quydagi g'oyalarni ilgari surdi.

\*Turkistonni o'rta asrlarga xos bo'lgan qoloqlik va dini xurofotdan ozod etish va shariatni isloh qilish .

\*Turkiston muxtoriyat hukumatini barpo etish, Buxoro va Xivada demokratik respublika tuzimini o'rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish

\*Milliy pul birligi , Milliy qo'shin tuzish va Milliy davlatchilik tuzumini shakillantirish.

\*Yangi usul maktablar tarmog'ini kengaytirish,qobiliyatli yoshlarni chet elga ta'lif olish uchun yuborish.

\*Turli marifiy teatr truppalarini tuzish, gazeta va jurnallar chop etish bu orqali xalqning ma'naviy ongini bir pog'ona yuksaltirish

XIX asrning ikkinchi yarmida Jadidchilik harakatining turkistonda tarqalishning mafkuraviy yo'nalishi uch g'oyaviy frontdan iborat bo'lgan.Ular Turkiston,Buxoro, Xiva jadidchilik kabi frontlar edi. .Turkiston jadidchiligining ijtimoiy asosini ziyyolilar tashkil qilgan .Ular Rossiya mustabid hokimiyatiga qarshi kurashning oldingi saflarida turishdi.Turkiston dastlab muxtor so'ngra mustaqil davlat bo'lishini yo'qlab chiqdilar .Buxoro jadidchiligining asosini taraqqiyparvarlar, hunarmandlardan iborat bo'lgan. XX asr boshlarida Buxoro jamiyati 2 gruhga : Ikrom domla rahbarligidagi taraqqiyparvarlar, Mulla Abdurazzoq boshchiligidagi qadimiy larga bo'lingan edi. Ular turkistondagi ijtimoiy siyosiy vaziyatdan kelib chiqqan holda hukumat oldiga soliqlarni kamaytirish talabi bilan chiqdi. Xiva jadidchiligi asosiy ikkita oqimdan tashkil topgan.O'ng oqimni harakatlantiruvchi kuch rivojlaniyotgan savdo-sanoat korxonalari egalari hamda yirik boylarning vakillari hisoblangan. Bu oqimga Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Islomxo'ja boshchilik qilgan. O'ng oqim o'z oldiga xon hokimiyatini saqlab qolgan holda iqtisodiy sohada o'zgarishlar amalga oshirish orqali erkin bozor munosabatlariga keng yo'l ochishni maqsad qilib qo'ygan.Xiva jadidchiligining so'l oqimi esa mayda sarmoyadorlar va xalqning turli tabaqa vakillarini birlashtirgan bo'lib ularga qozikalon Bobooxun Salimov rahbarlik qilgan.Ularning asosiy birdan bir maqsadi xon hokimiyatiga qarshi kurash bu orqali yangi usul maktablar tarmog'ini kengytirishni o'z oldiga dasturilamal sifatida qo'ygan edi. Jadidchilik harakati namoyondalaridan bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudi, Sadreddin Ayniy, Fayzulla Xo'jayev kabilar mustabid tuzumga qarshi kurashishning murosa yo'lini tanlagan bo'lsa, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov kabilar modernizatsiyaning radikal yo'lini tanlashgan. Jadidchilikning poydevoriga tamal toshi qo'yilishi yangi usul maktablari tashkil etilishi edi. Maqolamizning davomida maorif tuzimi yuksalishi hamda yangi usul maktablari tashkil topishi haqida atroflicha fikr yuritamiz. Rossiyaga qaram bo'lgan musulmon xalqlar orasida jadidlar harakatini rivojlantirishda Istanbulda ta'lif olgan , siyosat va jamoat arbobi Ismoil Gaspiral (1851-1914) katta rol o'ynaydi.Sharq tillari, madaniyat, mintaliteti bilan tanish bo'lgan Gaspiral osiyoning musulmon mamlakatlarini madaniy saviyasini oshirishga, mamlakatni modernizatsiyasi qilishga to'sqinlik qilayotgan to'siqlar

bartaraf qilishga intildi. Buxoroga kelib Sulton Ahad bilan uchrashdi va unga o'qitishning yangi usulidan foydalangan holda islom bilan bir qatorda dunyoviy fanlarni o'qitish tizimiga asoslangan maktablar tashkil qilish taklifini beradi Lekin an'anaviy mafkura tarafdori bo'lgan Sulton Ahad bu fikrni qo'llab quvvatlamaydi. Ismoil Gaspiral modernizatsiya qilishning dastlabki bosqichini ta'lim tizimini isloh qilishdan boshladi. Chunki mustabid tuzumga bolta urish uchun avvalo xalqning g'oyaviy mafkurasini shakillantirish zarur edi. 1884-yilda jadid maktabini tashkil qilib, 40 kunda 12ta bolaning savodini chiqardi. Uning bu tuzimi "usuli savtiya" yani "yangi usul" nomi bilan shuxrat qozondi. 1888-Yilda "Rahbari muallim, muallimlar yo'ldoshi" asarini yaratdi. Ommaviy axborot vositalari orqali milliy ozodlik g'oyalarini keng yoyish uchun foydalandi. Bu yo'lda "Tarjimon" gazetasi yashirin qurol vazifasini bajardi. Ushbu gazeta (1883-1914) yillar oralig'ida mavjud bo'lgan. Undan tashqari Munavvarqori rahbarligida "Xurshid", Abdulla Avloniy muharirligida "Shuxrat", Bektemirov tashabbusi bilan "Osiyo" gazetalari nashir qilina boshlandi. 1913-1915-yillar oralig'ida matbuotchilikning yangi to'lqini shakillana boshladi. Xususan "Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona", "Xurriyat", "Ulug' turkiston" kabi ommaviy axborot vositalari keng ommaga taqdim etildi. I.Gaspiral 1893 yilda Samarqand, Toshkent, Buxoro shaharlarida yangicha tuzimni keng yoyishga harakat qildi. Buxorodalik paytida Gaspiral Abdulahadni jadid maktabini ochishga ko'ndiradi. Bu maktab "Muzaffariya" nomi bilan ataldi. 1898-yilda To'qmoqda jadid maktablari ochildi. Shamsiddin domla boshchiligida Andijonda 1898-yilda, 1901-yilda Qo'qonda Salohiddin domla, Toshkentda Munavvarqori Abdurashidxonov, Samarqandda Abduqodir Shakuriy boshchiligida ilk jadid maktablari ochildi. 1908-yilda Buxoroda Abdulvohid Munzim tomonidan dastlabki tojik tilidagi yangi usul maktabini tashkil qilindi. Lekin bu yerda mutassiblik g'oyalar tarafdrorlari shu qadar ko'p ediki buning oqibatida 1909-yilda Munzimning tashkil qilgan maorif maskani yopiladi. 1911-1912 yillarda Buxoroda yangi usul maktablari soni 57 tani tashkil qilgan. Ularning orasida eng mashhurlari Mirkomil Burxonov, Usmonxoja Po'lat xojayev, Xolidxo'ja Mehrilarniki(1913) bo'lgan. Buxoroda joylashgan Mulla Vafoning maktabida o'qitish rus tiliga asoslangan edi. 1911-yilga kelib Turkistondagi yangi usul maktablar soni 63 ta bo'lib unda taxsil oladigan talabalarning soni 4106 tani tashkil etgan, yozma malumotlarga asoslansak hududlar kesimida maktablar taqsimlanishi quydagicha:Farg'ona viloyatida 36ta, Yettisuvda 12 tasi, 5 tasi Samarqandda Toshkentning o'zida 24ta yangi usul tipidagi maktablar mavjud bo'lgan. Munavvarqori Abdurashidxonovning 1927-yil toshkent okrug maorif

xodimlari qurultoyida so'zlagan nutqida shunday takidlagan: "Jadid maktabi tashkil qilg'onlar ham eski madrasa va qorixonalarda yetishib chiqqan ziyolilar edi.Ular yolg'iz Boxchasaroyda chiqadurg'on Gasprinskiy gazetalarini o'qirdilar va shu orqali Turkiston milliy mafkurasini shakillantirishga bel bog'lagan edilar,hamda Jadidlar oqimini vujudga keltirdilar"[ 1 ] deb so'zini yakunlaydi. Jadidlar taxsil oliyotgan avlod ongiga milliy vatanparvarlik ruhini singdirish maqsadida bir qator darsliklar yaratishdi.Jumladan Saidrasul Saidazizov "Ustodi avval" (1902), Behbudiy "Risolai asbobi savod" (1904), Munavvarqori "Adibi avval", "Adibi soniy" (1907), Avloniy "Birinchi muallim" (1910), "Ikkinch muallim" kabi asarlar taxsil oliyotgan talabalarni siyosiy qarashlarini bir qadar yuksalishiga zamin yaratdi. Jadidchilar yangi usul maktablari sonini tez suratlarda ko'paytirish uchun qilgan harakati bejiz ketmadi. 1917 yilda Turkistonda ularning soni 100 taga yetdi.Ammo jamiyatda tez fursatda yangicha fikrlaydigan qatlam shakillanishiga Rossiya ichki ishlar vazirligi jim qarab tura olmas edi. Jadidlarning usul maktablari tashkil qilib , gazetalar chiqarishlari panislomizmnning mintqa bo'ylab targ'ib qilish sifatida baholandi va hokimiyat bu borada qarshilik ko'rsatishga harakat qila boshladi[ 2].

Jadidlarning keyingi maqsadlaridan biri iqtidorli yoshlarni chet el oliy o'quv yurtlarida taxsil olish uchun jo'natishdan iborat edi. Shu maqsadda 1909-yilning 18-iyulida "Tarbiyai Atvol" marifiy jamiyatini tashkil qilishdi.Moliyaviy jihatdan Muhiddin Mansurov , Sadri Ziyo kabi sarmoyadorlar jamiyatini qo'llab quvvatlaganlar.Jamiyat asosini Hamidxo'ja Mehriy, Sadreddin Ayni, Ahmadjon Abdusaidov tashkil etgan. Ushbu jamiyat (1908-1914) yillar oralig'ida mavjud bo'lgan. Dastlab 1911-yilda 15nafar yosh kadirni chet elga taxsil olish uchun jo'natgan bo'lsa ,bu raqamlar 1912- yilda 30tani tashkil qilgan[3].

Turkiston Jadidchilik oqimini harakatlantiruvchi kuch sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shakuriy, Sadriddin Ayniy, Abdulhamid Cho'lpon, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdurauf Fitrat, Is'hoqxon Ibrat kabi yurt fidoilari ko'z oldimizda gavdalanadi. Xususan o'rta osiyo Jadidlar otasi hisoblangan *Mahmudxo'ja Behbudiy*(1875-1919) Uning tashabbusi o'laroq Samarqandda yangi usul maktablari ochildi. 1909 yilda islom tarixiga oid asar yaratdi.Mamlakat yoshlarini saviyali ilmi asarlar bilan taminlash maqsadida (1908) yilda " Behbudiya" kutubxonasi nomi bilan mashhur qiroatxona tashkil qildi [4]. Bu esa talabalarning g'arb va sharq ilmi manbalaridan bohabar bo'lishi uchun yaratilgan eng katta imkoniyat edi. Xalqning ma'naviy ongini yuksaltirishda matbuotning o'rni yuqori ekanligini anglagan holda "Behbudiya" nomi bilan


ataladigan xususiy nashriyot tashkil qiladi, shuningdek "oyna" jurnali (1913) nashir etilishida jonbozlik ko'rsatdi. .Behbudiy (1904-1909) yillarda "Risolai jug'rofia umroniya", "Risolai jug'rofiya Rusiy", "Kitob ul atvol", "Muxtasar tarixi islom" kabi yuksak vatanparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan asarlarni yozib qoldirgan.

**Abdurauf Fitrat** (1886-1938) o'rta osiyo jadidchiligining taniqli vakili shuningdek birinchi o'zbek prafessori[5].Fitrat shaxsiyati Jadid marifatparvarlik harakati shakillanishida asosiy o'rinni egallaydi.Jadidchilik milliy marifatparvarlik harakatining tarafdori. Inqilobga qadar o'rta osiyoni Rossiyadan ozod qilinish harakatlarida jonbozlik ko'rsatgan .1909-yilda Istanbulda nashr etilgan "Munozara" asari mazmunida Buxoro amirligi boshqararuv tizimida islohat o'tkazish hamda usuli jadid deb nomlangan maorif tizimi asoslari haqida so'z yuritgan.1906-1907 yillarda qizlar ucun Urganchda maktab ochilishi tashabbuskori bo'ldi.Shuningdek do'sti Munzim bilan hamkorlikda 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaga tahsil olishga jo'natdi.O'z asarlari mazmunida mustabid tuzimni qoralab xalqni ilmsizlik iskanjasidan olib chiqishga qaratilgan g'oyalarni ilgari surganligi taxsinga sazovordir

**Munavvarqori Abdurashidxonov** (1878-1929) Turkiston jadidchilik harakatining yo'lboschchisi XX asr o'zbek teatrchilik san'at, o'sha davrda nashr etilgan "Xurshid" gazetasining, shuningdek yangi usul maktablari asoschisi hisoblanadi. 1910-yilda Toshkentda "Turon" kutubxonasi tashkil etishda oldingi saflarda turib tashabbus ko'rsatgan. Dastlab 1901-yilda o'z uyida yangi usuli jadid maktabini tashkil qiladi.Uning "Adibi avval", "Adibi soniy"(1907), "Tarixi Anbiyo" kabi qo'llanma darsliklari yangi tashkil etilgan usul maktablarida asosiy qo'llanmasi sifatida qadrlangan.Munavvarqori 1917-yil fevral oyi voqealaridan so'ng Turkiston xalq demokratik davlatchilik yaratish g'oyalarini ochiqdan ochiq ilgari sura boshlaydi.1918-yilda Turk o'chog'i ilmi marifiy jamiyatini tashkil qiladi. Mustabid tuzum zanjirlariga bolta urish uchun yashirin inqilobi "Milli ittihod va Milli istiqlol" gruhiga rahbarlik qila boshlagan hamda ozodlik kabi g'oyalarni ilgari surib xalqni birlikka chorlagan.

O'zbek xalqi uchun norasmiy motam kuni sifatida eslanadigan 1938-yilning 4-oktabr voqealarini jadidchilik harakati namoyondalari hayotida qora sahifalarga muxurlandi.1938-yil 4-oktabrda Toshkent SSSR Oliy sudi Harbiy kollegiyasining sayyor yig'ilishida 51 nafar mahbus otuvga hukum qilingan.4-16-oktabr oralig'ida 507nafar O'zbekistonlik mahbus ustidan shavqatsiz hukm chiqarildi. Ular orasida xalqimizning jaholat botqog'idan olib chiqishga harakat qilgan ammo yakunda

otuvga hukm qilingan ziylilar ham bor edi. Xususan Abdurauf Fitrat, Cho'lpon (1937-yil xalq dushmani), Abdulla Qodiriy (1937-yil 31-dekabrda xalq dushmani), kabi adabiyotimizning yorqin vakillari shuningdek siyosiy arboblarimizdan Rahim Inog'omov, Rustam Islomov, Sadulla Tursunxo'jayev kabilar ham qatog'on qurboni bo'lishdi. Rasmiy malumotlarga ko'ra SSSR oliv sud raisi yurist Aleksev tomonidan davlat xafsizlik mayyori Darenik Zaxarovich Apresyanga talabnomasi yo'llab 51 nafar ziyliy ustidan chiqarilgan qarorga o'zgartirish kiritib zudlik bilan otuvga hukim qiladi [5]. Jazo Yunusobod tumanidagi qatilxonada amalga oshiriladi. (1va 2 rasmlarga) etibor bering. Unda Fitrat hamda Qodiriyning oliv sud qaroriga ko'ra sud jarayoni 5-oktabrda bo'lishi haqidagi hujjat berilgan. Ammo jazo otriyadi bir kun avval jazoni ijro etish uchun buyruq oladi. Ertasida sud zalida saxnalashtirilgan sud jarayoni bo'lib o'tadi. Jazo otriyadi tomonidan 4-oktabrda jazo amalga oshirilayotgan vaqtida aholi o'q ovozini payqamasligi uchun motor yoqib qo'yilganligi tarixiy ma'lumotlarda uchraydi. Manbalarda keltirilishicha ushbu kunda shu qadar ko'p mahbuslarning hayotiga zomin bo'lishadiki hatto avtomatlar o'qlari bunga dosh bermaydi. Cho'lponga kelgan vaqtida o'qlar ham tugaydi. Cho'lpon bunday qabih kimsalar orasida qolishni istamasligi tabiiy edi, va yakunda jazo bolta bilan amalga oshiriladi. Davlat xafsizlik katta letinanti Shishkin tomonida jazo amalga oshirilgani haqida dalolatnomasi tayyorlanadi [5]. Yuqorida malumotlardan shu ayon bo'ladiki yurtni jaholat botqog'idan olib chiqish uchun qilgan harakatlari tufayli jazo yana bir oz vaqt kechiktirilganda edi xalqning istiqlolchilik harakatlari bilan ulanib ketgan bo'lar edi. Ammo ko'p o'tmay xalq g'aflat uyqusidan uygondi. Milliy ozodlik harakatlari keng yoyila boshlandi. Podsho hukumati millatning mintalitetiga urgan boltasi o'z hukumatining ag'darilishiga zamin yaratdi. Jadidchilik harakati xalqimizning mustabid tuzumdan xalos bo'lishida, milliy mafkura shakillanishida, shuningdek xalqimizning diniy va dunyoviy qarashlari bir qadar yuksalishida muhim ahamiyat kasb etdi. Jadidchilik harakati maorif va siyosiy boshqaruvi tizimlarida ham o'zining ijebiy ta'sirini o'tkazdi. Jadidlar hayotidagi qora saxifalar xalqimiz xotirasida o'chmas iz qoldirdi. Tarix zarvaraqlarida va xalqimiz ongida xalq ozodligi yo'lida shahid bo'lgan yurt farzandlari yodi mangu qolajak.



### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1 Munavvarqori Abdurashidxonov. "Qizil O'zbekiston" . Toshkent. 1927 yil.  
Ziyo uz.com.
2. Qosimov B. "Milliy uyg'onish", T "Sharq" 2004-yil, 53-bet.
3. Baxrom Irzayev. "O'zbek yoshlari va xorijiy ta'lim", T. 2018-yil
- 4.Mahmudxo'ja Behbudiy . "Behbudiya kutubxonasi", Tanlangan asarlar. Jild - II.T.:2018-yil 14-bet
- 5.Sh.G'afforov. "Istibdod davrida Turkistondagi ta'lim tizimi".- Samarqand.2001-yil
6. "Jadidchilik:islohat,yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash"-T Sharq 1999-yil.
7. M.F.Zikrullayev. "Katta Qirg'in" tarixining muhim sanalari"1937-1938yillardagi. T-"Fan" nashriyoti. 2013-yil

### **INTERNET SAYTLARI:**

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/jadidchilik>
2. <https://fayllar.org/jadidchilik-va-jad-adabiyoti-yangi-o'zbek-adabiyotining-oziga.html>